



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

DUDUQLANISH NUTQ NUQSONINING KELIB CHIQISHIGA KO'RA TURLARI VA SHAKLLARI

Gapurova Dilnoza Tadjibayevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, dotsent (PhD)

Muhammadsharipova Nafisa Saidakbarovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, talaba

Annotatsiya

Maqolada duduqlanish nutq kamchiliklarining turlari, shakllari haqida ma'lumot berilgan. Ushbu maqolada duduqlanish nutq nuqsonining turli tasniflari bo'yicha qiziqarli faktlar berilib o'tilgan. Maqolada duduqlanish nutq nuqsonining kelib chiqishi, turlari va shakllari batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqotda duduqlanishning anatomik-fiziologik, psixologik va nutq jarayonidagi xususiyatlari o'rganildi, shu jumladan bolalardagi artikulyatsion apparat, muskul tortishishlari, nafas va ovoz mexanizmlari kuzatildi. Maqolada duduqlanishning etiologik omillari – periferik va markaziy asab tizimlaridagi buzilishlar, hissiy turg'unsizlik va logofobiya kabi psixologik omillar, shuningdek nutq organlarining struktura va funksiyalari bilan bog'liq anomaliyalar – bo'yicha tizimli tasnif berilgan.

Kalit so'zlar: duduqlanish, nutq va muloqot, psixoterapiya, mutizm, nutq kartasi, apraksiya, prosodika, sezgi, idrok, diqqat, kompleks, tibbiy yondashuv, klonik, tonik, aralash.

ВИДЫ И ФОРМЫ ЗАИКАНИЯ ПО ПРОИСХОЖДЕНИЮ РЕЧЕВОГО НАРУШЕНИЯ

Гапурова Дилноза Таджибаевна

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, доцент (PhD)

Мухаммадшарипова Нафиса Саидакбаровна

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, студентка

Аннотация

В статье представлена информация о типах и формах заикания. Приведены интересные факты о различных классификациях заикания. Подробно проанализированы происхождение, типы и формы заикания. Изучены анатомо-физиологические, психологические и речевые особенности заикания, включая наблюдение за артикуляционным аппаратом, мышечными сокращениями, дыхательным и голосовым механизмами у детей. Представлена систематическая классификация этиологических факторов заикания – расстройств периферической и центральной нервной системы, психологических факторов, таких как эмоциональная нестабильность и логофобия, а также аномалий, связанных со структурой и функциями органов речи.

Ключевые слова: заикание, речь и коммуникация, психотерапия, мутизм, речевая карта, апраксия, просодия, ощущение, восприятие, внимание, комплекс, медицинский подход, клонический, тонический, смешанный.

TYPES AND FORMS OF STUTTERING ACCORDING TO THE ORIGIN OF SPEECH DISORDER

Gapurova Dilnoza Tadjibayevna

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Associate Professor (PhD)

Muhammadsharipova Nafisa Saidakbarovna

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Student

Abstract

The article provides information about the types and forms of stuttering speech defects.

This article provides interesting facts about various classifications of stuttering speech defects. The article analyzes in detail the origin, types and forms of stuttering speech defects. The study studied the anatomical-physiological, psychological and speech process features of stuttering, including the observation of the articulation apparatus, muscle contractions, respiratory and voice mechanisms in children. The article provides a systematic classification of the etiological factors of stuttering - disorders in the peripheral and central nervous systems, psychological factors such as emotional instability and logophobia, as well as anomalies associated with the structure and functions of the speech organs.

Keywords: stuttering, speech and communication, psychotherapy, mutism, speech card, apraxia, prosody, sensation, perception, attention, complex, medical approach, clonic, tonic, mixed.

Duduqlanish — bu nutq apparati muskullarining tortishishi natijasida nutqning sur'at, temp, ohang va ravonligining buzilishi bo'lib, nutqiy nafas va nutqning kommunikativ funksiyasi buzilishi bilan xarakterlanadigan nutq nuqsonidir. Duduqlanish MKB-10 bo'yicha F-98.5 shifri bilan belgilanadi. Qadimda duduqlanish ko'p hollarda bosh miyada suyuqlik to'planib qolishi yoki artikulyatsion apparat qismlarining o'zaro noto'g'ri munosabati bilan bog'liq kasallik deb qaralgan. Nutq insonning muloqotdagi asosiy vositasi bo'lib, uning buzilishi shaxsning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Duduqlanish nutq nuqsoni bolalarda eng ko'p uchraydigan buzilishlardan biri bo'lib, nafas, ovoz va artikulyatsion apparatning koordinatsiyalashgan ishini buzadi. Ushbu nuqsonning kelib chiqishi anatomik-fiziologik, psixologik va ijtimoiy omillarga bog'liq bo'lib, u maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning nutq rivojlanishiga sezilarli ta'sir qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Duduqlanish (stuttering) nutq nuqsonining kelib chiqishi, shakllari va turlari bo'yicha ilmiy adabiyotlar keng qamrovli ma'lumotlarni taqdim etadi. Ayupova (2007) duduqlanishni logopedik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning asosiy anatomik-fiziologik va psixologik belgilari hamda korreksion ish metodlarini ko'rsatadi [1, s. 45–62]. Ward va Bloodstein duduqlanishning klinik va psixologik asoslarini, shuningdek, davolash va profilaktika yo'llarini batafsil bayon etadi [2, s. 22–50; 3, s. 13–70]. So'nggi yillarda onlayn manbalarda duduqlanishning tabiati va neyrofiziologik asoslari keng tahlil qilinmoqda. Masalan, onlinelibrary.wiley.com saytidagi maqolalarda nutq jarayonidagi markaziy va periferik tizimlar faoliyati bilan bog'liq buzilishlar ko'rsatib o'tilgan [4]. Rossiyalik tadqiqotchilar, jumladan, Gladkovskaya (2008) va Goncharova (2005), duduqlanish bilan og'rikan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan kompleks logoritmik mashg'ulotlar va profilaktika metodlarini tavsiya qiladi [5, s. 60–67; 6, s. 59]. Gapurova (2025) inklyuziv ta'lim sharoitida nogironligi bo'lgan talabalar nutq rivojlanishini o'rganib, duduqlanishning ijtimoiy va psixologik omillarga bog'liqligini ko'rsatadi [7, s. 165–178]. Kazbanova (2005) va Kartushina (2006) nutqning tempo-ritmik va artikulyatsion rivojlanishi orqali duduqlanishni profilaktika qilish metodlarini batafsil sharhlaydi [8, s. 28–32; 9, s. 45–72]. Shuningdek, Abidova (2012–2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar duduqlanish bilan og'rikan bolalarda nutq va muloqot rivojlanishining individual xususiyatlarini, shuningdek, inklyuziv va maxsus ta'lim sharoitlarida logopedik ishning tashkiliy jihatlarini tahlil qiladi [10, s. 29–33; 11, s. 131–137; 12, s. 10–18]. Ushbu tadqiqotlar duduqlanishning turli shakllari va etiologik omillari bo'yicha korreksion ishni samarali tashkil etishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Maqolada duduqlanish nutq nuqsonining kelib chiqishi va shakllari adabiyotlar tahlili, klinik-observatsion kuzatuv va nutq jarayonini tahlil qilish asosida o'rganildi. Bolalarning artikulyatsion apparati, nafas va ovoz mexanizmlari, shuningdek, psixologik xususiyatlari kuzatilib, duduqlanishning turli shakllari va etiologik omillari tizimli tarzda tasniflandi. Shu orqali duduqlanishning kelib chiqish sabablari va tashqi belgilarini aniqlash hamda korreksion ishni samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil natijalari va muhokama

Duduqlanish paytida bosh miyaning markaziy va periferik bo'limlarida buzilishlar kechadi. XIX asr boshlarida qator fransuz tadqiqotchilari duduqlanishni ko'rib chiqib, uni nutq apparatining periferik va markaziy bo'limlari faoliyatidagi turli xil og'ishlar bilan bog'lab tushuntirdilar. Jumladan, shifokor Vuazen (1821) duduqlanish mexanizmini nutq organlari muskul sistemasiga keladigan serebral ta'sirlarning yetishmasligi, ya'ni markaziy asab sistemasi bilan bog'laydi. Duduqlanishning bir necha tasniflari mavjud bo'lib, ular maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda duduqlanish kechishining umumiy qonuniyatlarini inobatga oladi. Etiologik belgilariga ko'ra, ya'ni nutq buzilishining klinik ko'rinishini inobatga olgan holda, duduqlanish 4 guruhga tafovutlanadi:

Duduqlanish turi	Tavsifi
Nutq jarayonida ishtirok etuvchi a'zolarining tuzilishi va funksiyasidagi anomaliyalar bilan birga keluvchi duduqlanish	Artikulyatsion apparat tuzilishi va funksiyasidagi buzilishlar bilan bog'liq bo'ladi
Chapaqaylik bilan bog'liq duduqlanish	Chap qo'llilik yoki qayta o'rgatish jarayonidagi nevropsixologik omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin
Taqlid asosida yuzaga kelgan duduqlanish	Bola atrofdagi duduqlanuvchi shaxs nutqiga taqlid qilishi natijasida yuzaga keladi
Hissiy turg'unsizlik va hissiy buzilishlar bilan birga keluvchi duduqlanish	Logofobiya va boshqa emotsional buzilishlar bilan kechadi

Artikulyatsion apparatda quyidagi pay tortishishlari farqlanadi:

- lab;
- til;
- yumshoq tanglay.

Artikulyatsion apparatda pay tortishishlar portlovchi undosh tovushlar — k, g, p, b va boshqalar talaffuzida ko'p va yaqqol, sirg'aluvchi tovushlar talaffuzida esa kam va yengilroq namoyon bo'ladi. Jarangsiz tovushlarga nisbatan koordinatsion jihatdan murakkabroq bo'lgan jarangli tovushlarda bunday holatlar ko'proq kuzatiladi.

Duduqlanishda nafas buzilishi 3 shaklda bo'lishi mumkin:

Shakli	Tavsifi
Ekspirator shakli	Pay tortishishli nafas chiqarish
Inspirator shakli	Pay tortishishli nafas olish, ba'zan xirillash bilan kechadi
Respirator shakli	Pay tortishishli nafas olish va chiqarish, ko'pincha so'zlarni bo'lish bilan namoyon bo'ladi

Nutq akti jarayonidagi muskul tortishish joyiga ko'ra quyidagicha bo'ladi:

- nafas;
- ovoz;
- artikulyatsion;
- aralash.

Anatomik-fiziologik belgilarga ko'ra duduqlanuvchi bolalar 2 guruhga tafovutlanadi:

Pallidar sindromli bolalar	Striar sindromli bolalar
Psixik-jismoniy tormozlanganlik, siqqlik, shaxs buzilishlari, atrofdagilar bilan aloqaga kirishishdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Bolalar ma'yus, g'amgin bo'lib, o'yinlarda ishtirok etishmaydi.	Psixik-jismoniy tormozlanganlik, asab-ruhiy buzilishlar xos. Bolalar harakatchan, tinib-tinchimas bo'lib, duduqlanishidan uyalishmaydi, aloqaga tez kirishadilar.


Duduqlanish davom etishiga ko'ra quyidagi shakllarga bo'linadi:

Shakli	Tavsifi
Doimiy	Duduqlanish paydo bo'lgach, turli nutq shakllari va vaziyatlarida bevosita namoyon bo'ladi
To'liqinsimon	Duduqlanish goh kamayadi, goh kuchayadi, lekin butunlay yo'qolmaydi
Qaytalanuvchi	Duduqlanish yo'qolib, yana paydo bo'ladi, ya'ni qaytalanish yuzaga keladi; uzoq muddatli erkin, tutilishsiz nutqdan so'ng qayta paydo bo'ladi

Nutq akti jarayonidagi muskul tortishish chastotasiga ko'ra quyidagicha bo'ladi:

- yakka;
- ko'p martalik;
- seriyali.

Nutq akti jarayonidagi muskul tortishishi duduqlanishning asosiy tashqi alomatlari sanaladi. Aslida muskul tortishishi uch xil bo'ladi: klonik, tonik va aralash. Klonik muskul tortishish vaqtida tovush, bo'g'in yoki so'z bir necha marotaba takrorlanadi: o-o-o-lma, pa-pa-pa-parta, non-non-non. Tonik muskul tortishish vaqtida esa so'z boshida to'xtalish ro'y beradi va tutilib gapiruvchi bir tovushdan, bo'g'indan yoki so'zdan ikkinchi tovushga, bo'g'inga va so'zga o'tolmaydi, uzoq to'xtalib qoladi: ...ol...ma, p...arta, ...n...on. Uchinchi turi — aralash shakl bo'lib, bunda klono-tonik yoki tono-klonik muskul tortishishi kuzatiladi. Odatda, bunday tortishishlar bilan barcha nafas, tovush va artikulyatsion apparat izdan chiqadi. Zero, uning harakati butun ishlayotgan markaziy nerv sistemasi orqali boshqariladi va nutq jarayonida ajralmagan bir butun a'zo sifatida ishlaydi. Mavjud pay tortishishining ustunligiga qarab nutqning u yoki bu organlari: nafas olish, ovoz paychalari va artikulyatsion apparatda tortishishlar joylashadi. Duduqlanadigan bolalarning hayajonli nutqida fonetik-fonematik va leksik-grammatik buzilishlar ko'zga tashlanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi duduqlanadigan bolalardagi fonetik-fonematik buzilishlar 60,7%, kichik yoshli o'quvchilar orasida 43,1%, o'rta yoshli o'quvchilarda 14,9% va yuqori sinf o'quvchilarida 13,1% ni tashkil qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi duduqlanuvchi bolalar orasida so'z talaffuzining buzilishidan tashqari, xastalikning 34 foizi nutq rivojlanishidan, so'zning yuzaga kelish muddatidan, iborali nutqning shakllanishidan chetga og'ish sifatida qayd qilinadi.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, duduqlanish nutq nuqsoni kelib chiqishiga ko'ra turli

shakllarga ega. Agar pedagog nuqsonning turini va shaklini to'g'ri tashxislab, korreksion ishni mos tarzda ishlab chiqa olsa, korreksion ish muvaffaqiyatli bo'ladi. Nuqsonning darajasi, turi, shakli va kelib chiqish sabablarini yaxshi o'rganmay turib real natijaga erishib bo'lmaydi. Duduqlanish nutq nuqsoni bolalar va kattalarda uchraydigan murakkab nutq buzilishi bo'lib, uning kelib chiqishi anatomik-fiziologik, psixologik va ijtimoiy omillarga bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, duduqlanish nafaqat nutq organlaridagi muskul tortishishlari bilan, balki nafas, ovoz va artikulyatsion apparatning koordinatsiyalashgan ishini buzilishi bilan ham bog'liq. Duduqlanishning etiologiyasi periferik va markaziy asab tizimidagi buzilishlar, psixologik omillar — logofobiya, hissiy turg'unsizlik hamda nutq organlarining struktura va funksiyasidagi anomaliyalar bilan tavsiflanadi. Nutq jarayonida kuzatiladigan muskul tortishishlari klonik, tonik va aralash shakllarda bo'lib, so'z va bo'g'inlarni takrorlash, to'xtab qolish yoki ularning aralash xususiyatlari bilan namoyon bo'ladi. Nafas va ovoz mexanizmlaridagi buzilishlar esa ekspirator, inspirator va respirator shakllarda kuzatiladi. Duduqlanish doimiy, to'lqinsimon va qaytalanuvchi shakllarda bo'lib, bolalarning shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy muhit va ta'lim sharoitlari bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, duduqlanishni samarali korreksiya qilish uchun pedagog va logoped nuqsonning turini, shaklini, davomiyligini va kelib chiqish sabablarini aniqlab, individual yondashuv asosida ishlashi lozim. Shu bilan birga, duduqlanish bolalarning muloqot qobiliyati va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Agar pedagog nuqsonning turini va shaklini to'g'ri tashxislab, korreksion ishni mos tarzda tashkil etsa, bolaning nutq rivojlanishi va kommunikativ qobiliyatlarini samarali yaxshilash mumkin. Xulosa qilib aytganda, duduqlanishning turli shakllari va kelib chiqish omillarini chuqur o'rganish korreksion ishning asosiy sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ayupova M. Yu. Logopediya. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007.
2. Ward D. Stuttering and Cluttering: Frameworks for Understanding and Treatment.
3. Bloodstein O. A Handbook on Stuttering. — Plural Publishing.
4. The Nature of Stuttering [Elektron manba]. — URL: <https://onlinelibrary.wiley.com>
5. Гладковская Л. М. Подгрупповые комплексные занятия для старших дошкольников, страдающих заиканием // Логопед. — 2008. — № 8. — С. 60–67.
6. Гончарова Н. Коррекция заикания // Дошкольное воспитание. — 2005. — № 3. — С. 59.
7. Gapurova D. T. The development of awareness of students with disabilities in the conditions of inclusive education through the means of Uzbek folklore // Pegem Journal of Education and Instruction. — 2025. — Vol. 15, № 4. — P. 165–178.
8. Казбанова Е. С. Развитие темпо-ритмической организации детской речи как способ профилактики заикания // Логопед. — 2005. — № 6. — С. 28–32.
9. Картушина М. Ю. Конспекты логоритмических занятий с детьми 6–7 лет. — М.: Сфера, 2006. — 192 с.
10. Комплексный метод преодоления заикания у детей в условиях санатория [Электронный ресурс] // Курортные ведомости. — 2009. — № 1 (52). — URL: www.kved
11. Абидова Н. З. Анализ проблемы развития речи и общения у детей с нарушениями зрения // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Образование. Педагогические науки. — 2014. — Т. 6, № 3. — С. 29–33.
12. Abidova N. Children with Visual Disorder Speech Development Peculiarities // Eastern European Scientific Journal. — 2019. — № 1.
13. Abidova N. Z. Organization of the work of a speech therapist teacher in an inclusive practice // Maktab va hayot. — 2022. — № 4. — В. 168.
14. Абидова Н. З. О конкретизации речи детей с нарушениями зрения // Педагогический журнал. — 2012. — № 5–6. — С. 131–137.
15. Abidova N. Z. Forming the System of Reader's Abilities in Primary-School Pupils with Visual Impairment at Reading Lessons [Elektron manba]. — URL: www.auris-verlag.de